

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 4 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4



TOSHKENT-2025

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-4>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Искандарова Нодира Бахрамбековна
ВОСТОК В ЗАПАДНОМ КОНТЕКСТЕ: АДАПТАЦИЯ ОРИЕНТАЛЬНЫХ ОБРАЗОВ В
НЕМЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XIX-XX ВЕКОВ.....7
2. Сапаева Хилола Бахромбековна
ЭКОЛОГИЯ И УТИЛИЗАЦИЯ ОТХОДОВ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ В
РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....14
3. Mamirova Xayriniso Komiljon qizi
BOLALAR NUTQIDA KO‘P MA’NOLI SO‘ZLARNING O‘ZLASHTIRILISHI: KOGNITIV VA
PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVLAR.....18
4. Pulat Fozilov
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FIZIOLOGIK HOLAT FE‘LLARINING IZOHLI
LUG‘ATLARDAGI TALQINI.....23
5. Masharipov Jakhongir Axmedovich
MORPHOLOGICAL CHALLENGES IN TRANSLATING TRANSPORT TERMINOLOGY
BETWEEN ENGLISH AND UZBEK.....28

IQTISODIYOT

1. Pirnafasov Sarvar Bardiboyevich, Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA QULAY INVESTITSION MUHITNI SHAKLLANTIRISHNI
TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....32
2. Sattarova Dilfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM MOLIVASI
TASHKIOTLARINI JALB QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....38
3. Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi
XORAZM VILOYATI MINTAQASIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI.....45

PEDAGOGIKA

1. Usanova Zulfiya Bozorovna
HOZIRGI INNOVATSION TA’LIM MUHITIDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TIZIMI (OLIY VA UMUMIY O‘RTA TA’LIM
MISOLIDA).....54

TARIX

1. Tuyev Fazliddin Erkinovich
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA CHET EL INVESTITSİYALARINING KIRITILISHI:
2003-2008 YILLAR ZARAFSHON VOHASI MISOLIDA.....59
2. Jumaniyazov Bekzod Ochilovich, Sabanova Nilufar Baxodir qizi
FUQAROLIK JAMIYATI TARIXIY BOSQICHLARI.....64

3. Salayev Dilshodbek Jumanazarovich TURKIY DAVLATLAR INTEGRATSIYASINING TADRIJI (EVOLYUTSIYASI) VA O'ZBEKISTONNING TASHKILOTGA A'ZO BO'LISHI.....	68
4. Xayitmuratova Zaynura G'aybullayevna QADIMGY MARKAZIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O'LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI.....	73
5. Muborak Madrimovna Matyakubova XIVA XONLIGINING BOSIB OLINISHI VA UNING IQTISODIY HAYOTGA TA'SIRI.....	78
6. Xayitov Shodmon Ahmadovich MILLAT FIDOIYSI, OZODLIK VA ERKINLIKNING TOLMAS KURASHCHISI (MAHMUD XO'JA BEHBUDIYNING MA'NAVIY MEROSIGA BIR NAZAR).....	83
7. Matyaqubova Nozima Maksatbayevna QADIMGY XORAZM SUG'ORISH TIZIMLARI OQCHADARYO VA SARIQAMISHBO'YI O'ZANLARI ASOSIDA DEHQONCHILIK VA MADANIY TARAQQIYOT.....	89
8. Durdona Jamolova BUXORODA GIDLIK XIZMATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY RISOLALAR VA MATBUOT MATERIALLARINING MANBAVIY AHAMIYATI.....	93
9. Egamov Yusufboy Ergashbek o'g'li O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING DAVLAT BOSHQARUVI VA QONUNCHILIK JARAYONLARIDA ISHTIROKINI MUSTAHKAMLASHDA YOSHLAR PARLAMENTINING O'RNI.....	98
10. Matnazarova Gulnoz Baxtiyorovna QUYI AMUDARYO HUDUDIDA NEOLIT DAVRI POLEOGEOGRAFIYASI HOLATI, O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI.....	103
11. Sanjarbek Davletov, Kamronbek Davlatov YANGI O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA VA HAMKORLIK.....	107
12. Salimov Matyusuf Kodirberganovich XX ASR BOSHLARIDA NIZOMIDDIN OXUN SALIMOVNING TA'LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI.....	111
13. O'g'iloy Erbo'tayeva Suyunovna IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA DEPORTATSIYA QILINGAN XALQLAR TAQDIRI.....	115
14. Qurbonova Sevara Sodiq qizi XORAZM VOHASIDA URUG'CHILIK JAMIYATINING GEOSIYOSIY SHAKLLANISHI.....	120
15. Сулайманова Сохиба Баходировна СУҒД ВОҲАСИНИНГ ҚАДИМГИ ПАНЧ ТАҢГАЛАРИ.....	125
16. Bahridil Ergasheva O'ZBEK XALQINING BOLA TARBIYASIGA OID USULLARI: TARIXIY-ETNOGRAFIK YONDOSHUV.....	129

Sattarova Difuza Dilshodbekovna-

Ma'mun Universiteti "Iqtisodiyot" kafedrasida katta o'qituvchisi

**MINTAQADA IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM
MOLIYASI TASHKILOTLARINI JALB QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI**<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15362904>**ANNOTATSIYA**

Maqolada islom moliyasining mazmun-mohiyati, islom moliyasi tashkilotlari va ularning faoliyat yo'nalishlari, mintaqada iqtisodiyoti rivojlanishida islom moliyasi tashkilotlarini jalb qilishning ustuvor yo'nalishlari aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: islom moliyasi, islom banklari, islom darchalari, mushoraka, salam, murobaha.

Саттарова Дилфуза Дилшодбековна-

старший преподаватель кафедры "Экономика" Университета Маъмуна

**ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ОРГАНИЗАЦИЙ
ИСЛАМСКОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ К РАЗВИТИЮ ОТРАСЛЕЙ ЭКОНОМИКИ В
РЕГИОНЕ****АННОТАЦИЯ**

В статье отражена сущность исламских финансов, исламских финансовых организаций и направления их деятельности, а также приоритетные направления вовлечения исламских финансовых организаций в развитие региональной экономики.

Ключевые слова: исламские финансы, исламские банки, исламские рынки, мушарака, салам, мурабаха.

Sattarova Difuza Dilshodbekovna-

Senior Lecturer of the Department of "Economics" of Mamun University

**PRIORITY AREAS FOR INVOLVING ISLAMIC FINANCE ORGANIZATIONS IN THE
DEVELOPMENT OF ECONOMIC SECTORS IN THE REGION****ABSTRACT**

The article reflects the essence of Islamic finance, Islamic finance organizations and their areas of activity, priority areas for involving Islamic finance organizations in the development of the regional economy.

Keywords: Islamic finance, Islamic banks, Islamic darchali, musharakah, salam, murabaha.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Jahonda bank-moliya tizimining muhim tarmog'i sifatida shakllangan islom moliya tizimi yildan yilga mustahkamlab bormoqda. Qisqa davr ichida Jahon Islom bank-moliya tizimi hajmi 758

mlrd. AQSh dollaridan (2007-yil) 4,2 trillion AQSh dollariga yetdi (2023-yil) [13]. Ushbu tizim jadal rivojlanib, 2026-yilga borib 5,9 trln. dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Islom moliyasi oqimlarini oshib borishi aksariyat mamlakatlarga ularni keng miqyosda jalb qilishni nazarda tutuvchi oqilona investitsiya siyosati yuritish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Buning uchun esa islom moliya bozorini rivojlantirish tendensiyalarini o'rganib borish muhim ahamiyatga ega.

Yangi O'zbekistonda keyingi yillarda islom moliyasi mahsulotlariga qiziqish sezilarli darajada kuchaygani sabab, ushbu sohada ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Qabul qilingan "O'zbekiston — 2030" strategiyasida bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirishga doir qator vazifalar belgilangan.

Jumladan, Strategiyaning 50-maqsadida bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 40 milliard dollarga yetkazish, bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish, banklarni xususiylashtirish va davlat ixtiyorida 3-4 ta bankni saqlab qolish, bank bozoriga kamida 4 ta yirik nufuzli chet el banklarini jalb qilish, banklarga xalqaro tan olingan minimal standart va talablarni joriy qilish orqali me'yorlar va nazorat bazalarini takomillashtirish, kamida 3 ta tijorat banklarida Islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etish, Islom moliyasining qonuniy asoslarini shakllantirish belgilangan. [1] Mamlakatda ushbu tizimni joriy bank-moliya tizimiga integratsiya qilishdan oldin uning aholi farovonligi va biznes rivojiga ta'siri darajasini har tomonlama baholash talab etiladi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Islom iqtisodiyoti va moliyasi muammolari xorijlik olimlar Abu Yusuf, A.Miraxor, X.Axmad, M.Iqbol, T.Usmon, M. Qoradog'iyar asarlarida o'rganilgan. [2]

MDH davlatlari olimlaridan L.R. Syukiyaynen, V.V. Pavlov, A.Yu. Juravlev, Ye.N. Miroshnik, R.I. Bekkin, A.A. Kazakov, R.R. Vaxitov, B.F. Mulyukov, A.M. Chumakova va boshqa[5] lar islom iqtisodiyoti, islom moliya huquqi, islom banklari faoliyati, hamda islom moliya mahsulotlari bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Islom iqtisodiyoti va moliyasi sohasida izlanishlar olib borgan mamlakatimiz olimlari Shayx Muxammad Sodiq Muxammad Yusuf, U.Alimov, S.Abrorov, A.Tursunov, R.Abdullaev, S.Dusanov, A.Abdulloh, X.Xasanov, O. Davlatyarov, T.Boboqulov, B.Jo'raev va boshqalar shular jumlasidandir. [7]

Ilmiy maqolada induksiya va deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash, iqtisodiy statistik kabi usullardan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

"Islom bank-moliya tizimi" islom iqtisodiyoti yoki islom iqtisodiy tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, eng avvalo moliya muassasalari va mijozlar o'rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi. "Islom iqtisodiyoti" tushunchasi o'tgan asrning o'rtalarida iqtisodiy tizimga kirib keldi. Kelib chiqishi Pokistonlik bo'lgan Saudiyalik tadqiqotchi Muhammad Umar Chapra islom iqtisodiyoti tushunchasiga shunday ta'rif berilgan: "...Islom iqtisodiyoti – cheklangan resurslarni islom dini ta'limotiga muvofiq ravishda taqsimlash vositasida inson farovonligiga erishish uchun yordam beruvchi bilimlar majmuasi bo'lib, bunda shaxs erkinligi haddan tashqari cheklanishiga hamda davomiy makroiqtisodiy va ekologik nomutanosiblikka yo'l qo'yilmaydi".[12] Demak, tadqiqotchi islom iqtisodiyotini farovonlikka yetaklovchi bilimlar, shaxs erkinligi, barqaror makroiqtisodiyot va ekologik muvozanat bilan bog'laydi. Bu tarifni islom iqtisodiyotiga berilgan munosib ta'riflardan biri deb hisoblash mumkin. Islom tamoyillariga mos keluvchi ilk moliyaviy muassasa Mit G'amr jamg'arma banki 1963-yilda Misrda tashkil etilgan. Ushbu jamg'arma islom moliya tizimining an'anaviy bank-moliya tizimiga muqobil sifatida ishlay olishini amalda ko'rsatdi. 1975-yilda Islom taraqqiyot bankining ta'sis etilishi islom moliyasining global bosqichga o'tganligini jahon hamjamiyatiga e'lon qildi. Shundan boshlab islom moliya muassasalari soni ortib, ularning geografik qamrovi kengayib bordi(1-rasm).

Islom bank-moliya muassasalari faoliyat doirasi, asosan quyidagi 5 yo'nalishni qamrab oladi:

- biznes sherikchilik, ya'ni biror loyihaga sarmoya kiritish va keladigan foyda yoki zarar muayyan nisbatda tomonlar o'rtasida taqsim qilinishi (*mushoraka* va *muzoraba* moliyaviy mahsulotlari);


- savdo, ya'ni mijoz talabi bo'yicha biror bir mulk xarid qilish, mulk narxiga ustama belgilash va uni mijozga muddatli to'lov asosida sotish (*murobaha, musavama, salam, istisna, ijara va iqtina*);

- o'rnatilgan haq evaziga xizmat ko'rsatish (*vakala*);

- qarz, ya'ni mijozga hech qanday evazsiz qarz berish (*qarzi hasan*). Bu faoliyat, bank-moliya muassasasining notijoriy/ijtimoiy faoliyati sifatida e'tirof etiladi;

- boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish va haq olish (*kafala, havala*).

1-rasm. Islom moliyasining shakillantirish bosqichlari



2-rasm. Islom moliyasi mahsulotlari



Islom moliyasining ushbu mahsulotlari har birining o'z qo'llanilish shartlari va xususiyatlari mavjud bo'lib, mamlakatimizda hozirgimunda bu mahsulotlar turlaridan bir nechitasi amaliyotda mavjud.

Xorazm viloyati investitsion faollik darajasiga ko'ra mamlakat hududlari ichida 11 o'rinda turadi. Milliy iqtisodiyotga jalb etilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning 3,9 foizi, chet el investitsiyalarining 1,1 foizi mintaqaga to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkichlar asosini mashinasozlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan markazlashgan investitsiyalar hamda yengil va oziq ovqat sanoatiga oid mahalliy loyihalar tashkil etadi(1-jadval).

1-jadval.Xorazm viloyati shahar va tumanlarida islom moliyasi imkoniyatlaridan foydalanish ustuvor yo'nalishlari

№	Hududlar nomlari	Islom moliyasi tamoyillariga mos ustuvor yo'nalishlari
1	Urganch shahar	Islam lizingi, salam
2	Xivashahar	Salam, murobaha
3	Yangibozor tumani	Muzoraba, mushoraka
4	Gurlan tumani	Muzoraba, islomiy lizing
5	Shovot tumani	Islomiy lizing, murobaha.
6	Xiva tumani	Salam, mushoraka
7	Yangiariq tumani	Muzoraba, mushoraka
8	Tuproqqal'a tumani	Mushoraka , murobaha.
9	Urganch tumani	Islom lizingi, muzoraba
10	Xonqa tumani	Murobaha, salam.
11	Hazorasp tumani	Mushoraka, murobaha
12	Bog'ot tumani	Murobaha, salam.
13	Qo'shko'pir tumani	Salam, islomiy lizing

Shunday qilib, mintaqada islom bank-moliya tizimini amalga oshirish jarayonida quyidagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy maqsadlarga erishiladi:

- ✚ o'z diniy e'tiqodi tufayli an'anaviy bank-moliya muassasalari foizli kreditlaridan foydalanmaydigan aholi va biznes vakillarini bank-moliya tizimiga jalb qilish va shu orqali ularning iqtisodiy-ijtimoiy faolligini oshirish;

- ✚ iqtisodiyotga ichki va tashqi investitsiyalar jalb qilish ko'lamini kengaytirish orqali mamlakat iqtisodiyoti rivojiga sezilarli hissa qo'shish;

- ✚ aholi va tadbirkorlardan omonatlar jalb qilish orqali banklarning resurs bazasini oshirish;

- ✚ mintaqadagi yetakchi banklarda islom darchalarini ochish;

- ✚ yangi yo'nalishda faoliyat yurituvchi moliya muassasalarini ko'paytirish va shu orqali yangi ish o'rinlari yaratish;

- ✚ xorijiy islom moliya muassasalari, xalqaro islom moliya tashkilotlari va IHTga a'zo davlatlardan mintaqada investitsiyalar va mahalliy tijoriy/investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun moliya mablag'lari (liniyalar) jalb qilish;

- ✚ islom iqtisodiyoti va moliyasi tarmog'ini rivojlantirish orqali "halol" mahsulotlar bozorini (birinchi navbatda shunday mahsulotlar eksportini) rivojlantirish;

- ✚ sukuklar chiqarishni yo'lga qo'yish orqali qimmatbaho qog'ozlar bozori va kapital bozorini rivojlantirish;

- ✚ takaful tizimini rivojlantirish orqali sug'urta bozoriga rivojiga hissa qo'shish;


- ✚ islom ijtimoiy moliya tizimi (birinchi navbatda vaqf va zakot)ni rivojlantirish orqali aholi ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;

- ✚ yangi yo'nalishda mutaxassislar yetishtirishni yo'lga qo'yish va shu orqali islom iqtisodiyoti va moliyasi hamda islom moliya fiqhi yo'nalishlarida ilmiy faoliyatni kuchaytirish.

Mintaqada islom moliyasi tashkilotlari faoliyatidan samarali foydalanish tashkiliy-iqtisodiy modeli asosini investitsion faollik, iqtisodiy, ijtimoiy omillar, raqamli platformalar, viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi, kichik va o'rta biznes korxonalari, moliya-kredit muassasalari, mintaqaviy, tarmoq va mahalliy investitsiya dasturlari tashkil qiladi(3-rasm).

Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda mintaqada islom moliyasi tashkilotlari imkoniyatlaridan foydalanish samaradorligini baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlar natijaviy va ta'sir etuvchi omillar sifatida tanlab olindi: natijaviy omil – yalpi hududiy mahsulot hajmi, mlrd.so'm – (Y), ta'sir etuvchi omillar—asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, mlrd.so'm — (X₁), xizmatlar hajmi, mlrd.so'm — (X₂)(2-jadval).

3-rasm. Mintaqa itisodiyot tarmoqlarida islom moliyasi tashkilotlaridan foydalanish tashkiliy-iqtisodiy modeli



2-jadval. Mintaqada islom moliyasi tashkilotlari imkoniyatlaridan foydalanish darajasini baholash ekonometrik modeli uchun tanlangan ko'rsatkichlar

Yillar	Ko'rsatkichlar		
	YHM (mlrd.so'm) (y)	Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, mlrd.so'm(X_1)	Xizmatlar hajmi, mlrd.so'm(X_2)
2010 - y	2 888,60	416,9	862,9
2011 - y	3 870,60	627,1	2815,8
2012 - y	4 793,40	783,4	1397,8
2013 - y	5 815,30	1 256,9	4066,0
2014 - y	7 313,70	1 614,8	4629,1
2015 - y	8 940,40	1 531,5	5052,2
2016 - y	10 336,60	1 560,5	5840,3
2017 - y	12 008,10	2 175,9	7218,0
2018 - y	15 977,20	3 013,8	9536,1
2019 - y	19 241,10	5 032,0	11213,4
2020 - y	21 467,90	5 391,8	12270,6
2021 - y	26 900,30	8 292,0	15756,4
2022 - y	31 963,10	8 769,7	19643,5
2023	36 916,50	12 050,7	13 266,1

Mavjud statistik ma'lumotlar asosida olib borilgan hisob – kitob natijalari asosida mintaqa yalpi hududiy mahsulot hajmini prognozlashga asoslangan “ARIMA” modeli shakllantirildi (3.3.6-jadval).

3-jadval

Mintaqa yalpi hududiy mahsulot hajmini prognozlashga asoslangan “ARIMA” modeli natijalari

Model 1: ARIMA, using observations 2011-2023 (T = 13)

Dependent variable: (1-L) GRP

Standard errors based on Hessian

	<i>Coefficient</i>	<i>Std. Error</i>	<i>z</i>	<i>p-value</i>	
const	2634.13	946.111	2.784	0.0054	***
phi 1	0.707422	0.191413	3.696	0.0002	***
Mean dependent var	2617.531		S.D. dependent var	1714.269	
Mean of innovations	127.1669		S.D. of innovations	1168.961	
R-squared	0.988910		Adjusted R-squared	0.988910	
Log-likelihood	-110.6235		Akaike criterion	227.2471	
Schwarz criterion	228.9419		Hannan-Quinn	226.8987	

F-Fisher, t-Student, Akaike, Shvars mezonlari ko'rsatkichlari shakllantirilgan modellarning barchasini statistik jihatdan ahamiyatli va adekvatligini ifodalamoqda.

Demak mintaqa yalpi hududiy mahsulot hajmini prognozlashda to'liq foydalanish mumkinligini asoslaydi. Mazkur ko'rsatkichlarning 2024–2028 yillarga mo'ljallangan prognoz qiymatlari quyidagi jadvalda berilgan (4-jadval).

4-jadval

Islom moliyasi imkoniyatlaridan foydalangan holda mintaqa yalpi hududiy mahsulot hajmi “ARIMA” ekonometrik modeli yordamida prognozlash natijalari

<i>Yillar</i>	Prognoz qiymat	Standart xatolik	95% oraliq
ARIMA			
2024	40782.5	1168.96	(38491.4 ; 43073.6)
2025	44288.1	2313.03	(39754.6 ; 48821.6)
2026	47538.7	3465.72	(40746.0 ; 54331.4)
2027	50609.0	4580.37	(41631.6 ; 59586.3)
2028	53551.6	5638.04	(42501.3 ; 64602.0)

Solishtirma natijalariga ko'ra ARIMA modeli asosida hisoblangan prognoz qiymatlar va ularning standart xatoliklari eng kichik qiymatga ega bo'lishi, shuningdek, ushbu prognoz qiymatlarni ishonchlilik intervallariga tushishi orqali real jarayonga to'la mos kelishi mazkur mintaqa yalpi hududiy mahsulot hajmini prognoz qiymatlari aynan ARIMA modeli bo'yicha ishonchli ekanligini asoslaydi.

Olingan natijalarga ko'ra, Xorazm viloyati yalpi hududiy mahsuloti 2028-yilga borib 53,5 trln. so'mga yetib 2023-yildagiga nisbatan 1,43 marta oshadi.

Xulosa. Mintaqada islom bank-moliya tizimini amalga oshirish jarayonida quyidagi iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy maqsadlar bilan birga quyidagi qo'shimcha maqsadlarga ham erishiladi:

1. **Moliyaviy barqarorlik.** Islom moliyasining asosiy tamoyillari adolat, transparentlik va manfaatlarni boshqarishga asoslangan. Bu esa o'z navbatida, moliyaviy tizimdagi korrupsiyani kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

2. **Yangi investisiyalar.** Islom moliyasi, ularning talablariga mos keladigan loyihalar uchun yangi investisiya manbalari yaratiladi. Ko'plab investorlar islom moliyasi tamoyillariga asosida loyihalarga sarmoya kiritishga tayyor.

3. **Istemolchilarning ishonchini oshirish.** Islom moliyasining etik tamoyillari istemolchilarning bunday tizimlarga bo'lgan ishonchini oshiradi, chunki ular foydali va adolatli shartlarda mablag' jamg'aradi.

4. **Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish.** Islom moliyasi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu loyihalar aholi farovonligini oshirish va ijtimoiy ravishda zaif qatlamlarga yordam berish imkonini beradi.

5. **Moliyaviy inklyuzivlik.** Islom moliyasi biznes muhitida iqtisodiy faollikni oshiradi. Bu moliyaviy xizmatlarga, resurslarga va imkoniyatlarga keng va oson ega bo'lishni ta'minlaydi.

6. **Raqobatbardoshlik.** Islom moliyasini joriy qilinishi xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshiradi.

Tadqiqotlar natijasida, islom moliyasi mablag'larini qo'llash tarafdorlari islomiy lizing (bitim shartlari maksimal darajada adolatlilik va shaffoflikka asoslangan moliyalashtirish) - 60 foiz, murobaha (nasiya savdoga asoslangan moliyalashtirish) - 71 foiz, salam (oldindan to'lovga asoslangan moliyalashtirish) - 60 foiz, muzoraba (foydani taqsimlashga asoslangan moliyalashtirish) - 56 foiz, mushoraka (sharikchilik — foyda va zararlarni taqsimlashga asoslangan moliyalashtirish) - 42 foizni tashkil qilish asoslangan.

Xorazm viloyati iqtisodiyotiga jalb qilinayotgan investitsiyalarni islom moliyasi tamoyillariga muvofiq bo'lgan investitsiyalar – islom lizingi (Urganch shahri, Urganch va Shovot tumanlari), murobaha (Yangiariq, Xonqa va Bog'ot tumanlari), salam (Xiva shahri, Xiva va Qo'shko'pir tumanlari), muzoraba (Gurlan va Yangibozor tumanlari), mushoraka (Hazorasp va Tuproqqala tumanlari) bo'yicha loyihalar ishlab chiqish taklifi kiritilgan.

ARIMA modeli asosida hisoblangan prognoz qiymatlar va ularning standart xatoliklari eng kichik qiymatga ega bo'lishi, shuningdek, ushbu prognoz qiymatlarni ishonchlilik intervallariga tushishi orqali real jarayonga to'la mos kelishi mazkur mintaqa yalpi hududiy mahsulot hajmini prognoz qiymatlari aynan ARIMA modeli bo'yicha ishonchli ekanligini asoslaydi.

Olingan natijalarga ko'ra, Xorazm viloyati yalpi hududiy mahsuloti 2028-yilga borib 53,5 trln. so'mga yetib 2023-yildagiga nisbatan 1,43 marta oshadi.

Сноски / Iqtiboslar/ References

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/6600413>
- 2.Abu Yusuf Ya'qub ibn Ibrohim Kufiy. Kitob Al-Xaroj (tarjimon A.Mannapova). // T.: "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021, 240 b.
- 3.Abbas Mirakhor. A Note on Islamic Economics // Islamic Research and Training Institute, 2007, 23 p.;
- 4.Muhammad Taqi Usmani. An Introduction to Islamic Finance // 1998, 169 p.
- 5.Л.Р. Сюкияйнен. Мусульманское право // Вопросы теории и практики, М. 1986, 254 с.6.
- 6.Р.И. Беккин. Исламская экономика: Краткий курс //М. 2008, 288 с.;
- 7.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Qarz va unga bog'liq masalalar. T.: "Hilol-Nashr", 2014.\\R.V. Abdullaev. Islom iqtisodiyotida savdo va tadbirkorlik. – T.: "EFFECT-D" nashriyoti, 2022. – 232 b.;
- 9.Baydaulet. Islomiy moliyalar va bank tizimi. // Tarjimon: Jo'raev B. – T.: O'zbekiston, 2014. – 464 b.; E.A.
- 10.Baydaulet. Islomiy moliya asoslari. // Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2019. – 432 b.;
- 11.R.I. Bekkin. Islom iqtisodiy modeli va zamon /– Toshkent: O'zbekiston NMIU, 2019. – 360 b.
12. Chapra M.U. The Global Financial Crisis: Can Islamic Finance Help? // Islamic Economics and Finance: A European Perspective, edited by J. Langton, C. Trullols and A. Turkistani. London: Palgrave Macmillan, 2011, 135-142 pp.
- 13.<https://www.refinitiv.com/en/resources/special-report/islamic-finance-development-report>

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000